

**HOZIRGI OLIY TA'LIM AMALIYOTIDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI****Azimova Ziyodaxon Ergashevna****ADPI professori (DSc).,****Aliyeva Dilobarxon Begali qizi****Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi****(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19878740>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborotlashuv davrida oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda mustaqil ta'lim shaxsning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va muammolarga kreativ yechim topishdagi o'рни tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" g'oyalari doirasida yoshlarni intellektual rivojlantirish masalalari hamda qabul qilingan so'nggi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, oliy ta'lim, kasbiy kompetensiya, axborotlashuv davri, o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim standartlari, intellektual salohiyat, pedagogik mexanizm.

**Аннотация:** В данной статье освещается актуальность и педагогическая значимость развития навыков самостоятельного обучения студентов в системе высшего образования в эпоху информатизации. В исследовании анализируется роль самостоятельного образования в формировании профессиональных компетенций личности, критического мышления и поиске креативных решений проблем. Также в статье рассматриваются образовательные реформы, проводимые в нашей стране, в частности, вопросы интеллектуального развития молодежи в рамках идей «Нового Узбекистана» и «Третьего Ренессанса», а также значимость последних принятых нормативно-правовых актов.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, высшее образование, профессиональная компетенция, эпоха информатизации, саморазвитие, образовательные стандарты, интеллектуальный потенциал, педагогический механизм.

**Abstract:** This article highlights the relevance and pedagogical significance of developing students' independent learning skills in the higher education system in the era of information technology. The study analyzes the role of independent education in the formation of professional competencies, critical thinking, and finding creative solutions to problems. Furthermore, the article examines the educational reforms implemented in our country, particularly the issues of intellectual development of youth within the framework of the "New Uzbekistan" and "Third Renaissance" ideas, as well as the importance of the latest adopted legal acts.

**Keywords:** independent education, higher education, professional competence, information age, self-development, educational standards, intellectual potential, pedagogical mechanism.

Bugungi axborotlashuv asrida oliy ta'lim tizimidagi eng dolzarb masalalardan biri — talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu jarayon bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy rivojlanishi va kasbiy kompetensiyalarini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. "Mustaqil ta'lim jarayonida talaba nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiradi, balki olingan axborotlarni tahlil qilish, ularni umumlashtirish va amaliy faoliyatga tatbiq etish mahoratiga ega bo'ladi. Bu esa bo'lajak mutaxassisda kasbiy muammolarni mustaqil hal etish hamda doimiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantirishning asosiy omilidir" [1]. Bilim va texnologiyalarning shiddat bilan yangilanib borishi yoshlardan doimiy izlanish va yangi

ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois, o'z ustida ishlash oliy ta'limning uzviyligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizmga aylandi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qitish samaradorligi talabanning ma'lumotni qanchalik mustaqil o'rganishi va uni amaliyotda qo'llay olish darajasi bilan o'lchanadi.

So'nggi yillarda respublikamizda yoshlarning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Rennessans" poydevorini barpo etishda strategik ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Yangi O'zbekistonni barpo etish — xalqimizning asriy intilishlariga mos va milliy manfaatlarimizga to'la javob beradigan ob'yektiv zaruratdir. Mazkur ezgu g'oyaning markazida har tomonlama yetuk va barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadi yotadi.

Ushbu ustuvor vazifalardan kelib chiqib, sohaga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli qarorida 2025-yil sentyabridan boshlab mustaqil ta'limni tashkil etishning ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish belgilangan. Hozirda oliy ta'lim muassasalari talabalarning davlat ta'lim standartlariga mos ravishda bilim olishlarini ta'minlashda aynan shaxsiy izlanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Zero, "Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'ngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarur"[2].

Bizga ma'lumki, "Darsning maqsadi – o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzuni o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish. Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari asosida belgilanadi"[3]. Mustaqil ta'limning maqsadi esa – talabanning mustaqil tarzda bilim olishga intilishi, mustaqil tarzda ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ham ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, yangi bilimlarni izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Chunki XXI asr – axborot - kommunikatsiya davrida axborot oqimi shu darajada tezki, har bir shaxs uzliksiz ravishda yangi bilimlarni o'rganishga va uzliksiz ravishda o'z-o'zini rivojlantirib borishga majbur. "Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro'y beradi"[4]. Binobarin, mustaqil ta'lim nafaqat talabalik davrida, balki mutaxassisning butun umri davomidagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat garovidir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2015. – 448 b.
2. R.Mavlonova., B.Normurodova., N.Rahmonqulova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanma. – T.: Tib kitob, 2010. 216 b.
3. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. – T.: Sahnof, 2023. 416 b.
4. J. Hasanboyev, X.A.To'raqulov., I.Sh. Alqarov., N.O'Usmanov. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). – T.: Noshir, 2011. 448 b.